



KEKSALAR FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Omonova Farangis

FarDU magistr

O'zbekona mentalitetga ko'ra keksalarga ehtirom, ularga nisbatan hurmat-e'tibor, ularni qadrlash, hurmat bilan munosabatda bo'lishga azal-azaldan katta e'tibor qaratilgan. Ular xonadonimiz fayzi hisoblanib, "Qarisi bor uyning parisi bor" maqoli ham bejiz aytilmagan. Hukumatimiz tomonidan ham keksalarga alohida e'tibor qaratib kelingan. Jumladan, 2002-yil "Qariyalarni qadrlash yili" deb nom olgan bo'lsa, keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamenti kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, oila va jamiyatda, yoshlarni o'zbek xalqining ko'p asrlik qadriyat va an'analari ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rnni mustahkamlash maqsadida, 2015-yilning "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatish va e'tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yoshi ulug' insonlarga davlat xizmatlari, shu jumladan, turli ma'lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjalarni olish xizmatlari ko'rsatishning eng qulay tizimi shakllantirildi.

"Har bir keksaga har tomonlama e'tibor qaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini kuchaytirish va oshirish, keksalarning hayot faoliyati va dam olishini tashkil etish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda ular uchun tuman va mahallalarda muloqot markazlari, qiziqishi bo'yicha klublar tashkil etishga alohida e'tibor qaratish, jismoni tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish, televideniye, ommaviy axborot vositalari, kinoteatrлar, teatr va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshi ulug' insonlarning qiziqishlariga mos mavzuda yangi maxsus ko'rsatuvarlar, spektakl va filmlar yaratish va efirga uzatish hajmini ko'paytirish;

Mahallalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tashkiliy tuzilmasida keksalar va nogironlarga doimiy e'tibor qaratadigan sektorni mustahkamlash, bunda ularga xizmat ko'rsatadigan idora va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy va tibbiy ta'minot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni nazarda tutish". Shunga muvofiq, keksalarning turmush darajasini oshirish, ularni ijtimoiy tomondan qo'llab-quvvatlash maqsadida turli qaror va farmonlar ham qabul qilingan. Xususan, "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi hamda 2016-yil 26-dekabrdagi "Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchi Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlaridan ham keksalar ijtimoiy himoyasi alohida o'rinni olgan bo'lib, ular bosqichma-bosqich amalga oshirib borilmoqda.



“Pensionerlar, nogironlar, yolg’iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to’laqonli hayot kechirishlarini ta’minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko`rsatish tizimini yanada rivojlantirish takomillashtirish;

Aholi o`rtasida kasallanish ko`rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta’minlash” borasida ko`plab ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda nafaqat, keksalarga g`amxo`rlik, e’tibor ko`rsatish balki, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning boy, ilg`or tajribalaridan samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanib kelinmoqda. Hukumatimiz tomonidan bunga katta e’tibor qaratilib, 2019-yil 27-sentabr kuni O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o’rni va ijtimoiy faolligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 816-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1990 yil 14-dekabrdagi rezolyutsiyasi bilan e’lon qilingan “1-oktabr - Xalqaro keksalar kuni”ni har yili mamlakatimizda munosib nishonlash maqsadida oktabr oyining birinchi haftasi “Keksalar haftaligi” etib belgilandi. Ushbu haftalikni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha alohida chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Haftalik doirasida keksalar hamda faxriylar uchun bayram tadbirlari, tibbiy ko’riklar, teatr va muzeylarga, tarixiy shaharlar va ziyoratgohlarga imtiyozli tashriflar, “Har kuni besh ming qadam” shiori ostida piyoda yurish marafonlari tashkil etildi.

Bularning barchasi keksalar salomatligi ta’minlash uchun amalga oshirilayotgan bo`lib, “Keksalar orasida sog`lom turmush tarzi va jismoniy tarbiya bilan shug`ullanishni targ`ib qilish, ularda salomatlik uchun mas’ullik tuyg`usini yuksaltirish orqali inson umrini uzaytirishga ko`maklashishga qaratilgan “Sog`lom va muvaffaqqiyatli qarilik” konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash” ham shular jumlasidandir.

Mahallalarda “Keksa avlod — oilaviy ajrimlarga qarshi!”, “Biz bor joyda jinoyatga o’rin yo‘ql!” shiorlari ostidagi ma’naviy targ’ibot tadbirlari yurtimizdagи ijtimoiy muhit barqarorligiga o`zining beqiyos hissasini qo’shib kelmoqda.

2019 yil 2 aprel kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoniga muvofiq, barcha mahallalarda “Keksalar maslahati”guruhlari tashkil etildi. Uning tashkil etilishi o`z navbatida keksalarning muammolarini manzilli o’rganish va bartaraf etish, keksa avlod vakillarining boy hayotiy tajribasidan oilalar va mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirishda keng foydalanish, ularning yurtimizda kechayotgan jadal islohotlar jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Albatta, barcha sohalarda bo`lgani kabi turli xil muammolarning tub ildizini o`rganib, ularni bartaraf etishda ham keksalarimizning beminnat tajribalaridan foydalanish o`z samarasini berishi shubhasiz.